

SOVET DAVRIDA MAISHIY XIZMAT MUASSASALARI.

Tojiboyev Munavvarjon No‘monjonovich

O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi

Farg‘ona akademik litseyi tarix fani bosh o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Sovet davrida Farg‘ona vodiysida maishiy xizmat muassalari, xususan sartaroshxonalar, hammomlar, kosibxonalar va tikuvchilik sexlari qanday bo‘ganligi, odamlar hayotiga qanday ta‘siri hamda shunga o‘xshash jarayonlar haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so‘z: *maishiy, fotoxizmatlar, sartaroshlik, madaniy-maishiy va sport buyumlarini ijaraga berish xizmatlari, ustaxona, maishiy xizmat uylar, hammomlar.*

Sovet davrida ijtimoiy soxaning turli tarmoqlarida, xususan, madaniy, maishiy, savdo sohalarida xizmat ko‘rsatish xizmatlarida ham qaloqlikka yo‘l qo‘yilgan edi. Shahar bilan qishloq o‘rtasida farq ham tobora kuchayib bordi. Aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish sohasi iqtisodiyotning hamda ijtimoiy hayotning muhim bo‘lagi bo‘lib, aholining turmush darajasini belgilovchi ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Shu o‘rinda maishiy xizmat ko‘rsatish masalasiga biroz to‘xtalib o‘tsak. Aholiga maishiy xizmat ko‘rsatish — aholiga noishlab chiqarish va ishlab chiqarish xizmati ko‘rsatish sohasining bir qismi. Maishiy xizmat kishilarning kasbiy va ijtimoiy-siyosiy faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan holda moddiy hamda ma‘naviy ehtiyojlarni bevosita qondirish bo‘yicha amalga oshiriladigan ijtimoiytashkiliy usullar va shakllar bilan tavsiflanadi.

Maishiy xizmat xalq xo‘jaligining maxsus industrial moddiy texnika bazasi — sanoat korxonalariga ega bo‘lgan alohida tarmog‘i hisoblanadi. Maishiy xizmat korxonolari tomonidan yakka tartibda shaxsiy iste‘mol buyumlarini tayyorlash, iste‘mol qiymatini yo‘qotgan, ro‘zg‘orda ishlatiladigan va shaxsiy foydalanishdagi buyurtmalarni tiklash, shaxsiy xizmatlar ko‘rsatish va boshqa ishlar bajariladi. Maishiy xizmatga uy-joyni ta‘mirlash, yakka buyurtmalar bo‘yicha mebellar tayyorlash va ularni ta‘mirlash, kir yuvish, buyumlar va kiyim-kechaklarni kimyoviy tozalash va bo‘yash, yakka tartibda poyabzal, kiyim-kechak, mo‘ynali va trikotaj buyumlari tikish va ta‘mirlash, avtomobillarga texnika xizmati ko‘rsatishg va ularni ta‘mirlash, ro‘zg‘or texnikasi mashinalari va asboblari, radio va teleapparaturalarni, shuningdek, musiqa asboblarini ta‘mirlash, qimmatbaho narsalarni lombardlarda saqlab berish bo‘yicha xizmatlar, fotoxizmatlar, sartaroshlik, madaniy-maishiy va sport buyumlarini ijaraga berish xizmatlari, xonadonlarni yig‘ishtirish bilan bog‘liq xizmatlar, turli topshiriqlarni bajarish va boshqa bilan shug‘ullanaligan korxonalar va tashkilotlar faoliyati kiradi.

Ijtimoiy taraqqiyot, texnika vositalarining rivoji, shuningdek, xalq moddiy farovonligining ortishi bilan aholining moddiy va ma‘naviy ehtiyojlari ham o‘sib-ko‘payib boradi. Bu holat maishiy xizmatning ijtimoiy-tashkiliy usullari va shakllarining kengayishini taqozo etadi. Maishiy xizmat korxonolari xizmat ko‘rsatish sohalarining boshqa tarmoqlari (masalan, savdo, umumiy ovqatlanish, bolalar muassasalari, turar-joy, kommunal xo‘jaliklari va h. k) bilan birgalikda xonadon xo‘jaligida bajariladigan ayrim ishlar va xizmatlarni asta-sekin ijtimoiy ishlab chiqarish va umumiy xizmat ko‘rsatish

shakllari bilan almashtirib boradi.

Sovet Ittifoqi davrida O‘zbekistonda aholiga maishiy xizmat ko‘rsatishning o‘z an‘analari va tarixiga ega bo‘lgan tizimi shakllangan edi. Qishloqlarda va shahar mahallalarida sartaroshlar, chegachilar, chevarlar, shuningdek, kosib va hunarmandlar maishiy xizmat ko‘rsatish vazifasini bajarganlar. Ustaxonalar va sartaroshxonalar shahar va qishloq bozorlari hududida, mahalla guzarlarida joylashgan edi. Qishloqlarning katta-kichikligi ularning funksiyasiga bog‘liq bo‘lishi bilan birga bunday aholi manzilgohlarida aholiga xizmat ko‘rsatish va servis sohasini rivojlantirish sharoiti turlicha bo‘ladi. Qishloq aholi punktlari zich joylashgan hududlarda o‘ziga xos “qishloq aglomeratsiyasi” shakllanib, ular doirasida ham mayatniksimon migratsiya kuzatiladi. Aholiga xizmat ko‘rsatish sohalari, masalan, ta‘lim, sog‘liqni saqlash tizimi qishloq joylarda pog‘onasimon, iyerarxiyali tashkil etiladi. Bu V. Kristallerning “markaziy o‘rinlar” g‘oyasiga binoan, mayda qishloqlarda ta‘lim yoki sog‘liqni saqlash tizimlarining eng qo‘yi bosqichi joylashadi, qishloqlar kattalashib borgan sari ularda tashkil etilgan bu sohalarga tegishli ob‘ektlar ham kattalashib boradi.

Bu davrda maishiy xizmat sohasini rivojlantirishga qaratilgan qarorlar qabul qilindi. Maishiy xizmat artellari tuzildi, yangi atele, ustaxona, maishiy xizmat uylari, korxonalar ochildi. Maishiy xizmat industriyasi yaratildi. Qishloqlarning katta-kichikligi, avval ta‘kidlanganidek, ularning qaysi sohaga ixtisoslashuviga bog‘liq. O‘z navbatida, qishloqlarda aholi sonining ko‘p yoki kamligi xizmat ko‘rsatish va servis sohasini joylashtirishga ta‘sir ko‘rsatadi. 1965 yilda respublikada maishiy xizmat ko‘rsatish vazirligi tashkil etildi. 1965–1980 yillarda maishiy xizmat ko‘rsatish korxonalari soni 8382 tadan 18031 ga yetdi (shu jumladan, qishloq joylarida 4403 tadan 11293 taga yetdi). Maishiy xizmat uylari va ixtisoslashtirilgan korxonalar ishga tushirildi.

Xizmat ko‘rsatish sohasi kam rivojlanganligi ham mehnatga layoqatli aholining ijtimoiy ishlab chiqarishga faol jalb qilinishiga to‘sqinlik qildi. Respublikada, ayniqsa, qishloq joylarida, bir qator viloyatlarning kichik shaharlari va tumanmarkazlarida uy-joy, maktablar, maktabgacha bolalar muassasalari, ijtimoiy, madaniy-maishiy ahamiyatga ega bo‘lgan boshqa muassasalar juda kam qurildi, xolbuki, bu joylarda ish bilan band bo‘lmagan mehnatga layoqatli aholini ishga jalb qilish mumkin edi. 1983 yilda faqat O‘zbekiston shaharlarining o‘zida 836 ming mehnatga layoqatli aholi ijtimoiy ishlab chiqarishda qatnashmadi. Ayni vaqtda sanoatda, qurilishda, turmushning boshqa sohalarida kadrlarning, ayniqsa milliy kadrlarning yetishmasligi qayd etildi. Bu yetishmovchilikni imperiya rahbariyati SSSRning Yevropa qismidan va boshqa respublikalardan ishchi kuchi olib kelish hisobiga qoplashga urindi. O‘zbekistonga tashqaridan ishchilar va mutaxassislarning oqib kelishi to‘xtovsiz o‘sib bordi, band bo‘lmagan mahalliy aholi soni esa tobora ko‘payib bordi.

Sovet davrida ijtimoiy sohaning turli tarmoqlarida, xususan, madaniy, maishiy, savdo sohalarida xizmat ko‘rsatish xizmatlarida ham qoloqlikka yo‘l qo‘yilgan edi. Shahar bilan qishloq o‘rtasida farq ham tobora kuchayib bordi. Farg‘ona vodiysi viloyatlarida qishloq aholisi shahar aholisidan sezilarli ravishda ko‘p bo‘lishiga qaramasdan, maishiy xizmat ko‘rsatish sohasida ortda qolmoqda edi.

O‘zbekistonda aholining o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish yalpi vaqt sarfi kamayib, maishiy xizmat ko‘rsatish muassasalari xizmatidan foydalanish ko‘paya boshlagan.

Xususan, mazkur yilda Andijon viloyatidagi 229 ta kolxozdan 170 tasida maishiy xizmat ko'rsatish muassasasi mavjud bo'lgan. 1959-1960 yillarda ko'pgina qishloqlarda bir yilda jon boshiga 50-70 tiyinlik maishiy xizmat ko'rsatilgan. 1961 yili Andijon viloyatida 480 ta maishiy xizmat muassasasi hamda ustki kiyimlar va oyoq kiyimlari tikish va ta'mirlash ustaxonalari faoliyat yuritgan bo'lsa, 1977 yilga kelib ularning soni 1623 taga yetdi, ularning 1127 tasi qishloqlarda tashkil etilgan edi. Bundan tashqari, 1982 yilda Andijon viloyatidagi dala shiyponlarida aholiga xizmat ko'rsatuvchi 3-4 turdagi doimiy xizmat ko'rsatish muassasalari tashkil etilgan. 1966 yilda Farg'ona viloyati aholisiga maishiy xizmatning 50 turi ko'rsatilgan bo'lsa, 1970 yilda ushbu xizmat turi 300 taga yetgan. 1965 yilda Farg'ona viloyatida maishiy xizmat ko'lami 4498 ming so'mni tashkil etib, undan 1511 ming so'mi qishloq aholisiga to'g'ri kelgan. Ushbu ko'rsatkich 1970 yilda viloyat qishloqlarida 2 barobardan ziyodga ko'paygan. 1965-1970 yillar orasida viloyatda maishiy xizmat turlari ichida eng katta o'sish kir yuvish (11 barobar), yakka tartibda oyoq kiyim tikish (8,5 barobar) hamda kiyimlarni kimyoviy tozalash xizmatida (3,5 barobar) kuzatilgan.

Namangan viloyati aholiga maishiy xizmat ko'rsatish buyicha 1968 yilda respublikada 5-o'rinni egallagan bo'lsa, 1974 yilda Toshkent viloyatidan keyin respublikada 2-urinni egallagan. Bundan ko'rinib turibdiki, Namangan viloyatida aholiga maishiy xizmat ko'rsatish Farg'ona va Andijon viloyatlariga qaraganda ancha yuqori bo'lgan. 1974 yil birinchi yarmida Namangan viloyatida aholi jon boshiga xizmat ko'rsatish hajmi 5 so'm 87 tiyinni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich Farg'ona viloyatida 5 so'm 14 tiyinni, Andijon viloyatida 5 so'm 4 tiyinni tashkil etgan. Aholining hammomlar bilan ta'minlanish darajasi nihoyatda past edi. Xususan, 1960-yillarda Andijon viloyatining 106 ta kolxozida kommunal

hammomlar bo'lmagan. 1970-yillarda ham qishloq hududlari to'liq hammomlar bilan ta'minlanmagan edi. Masalan, 1978 yilda Namangan viloyati kolxoz va sovxozlarida soatiga 3000 kishiga xizmat ko'rsatish quvvatiga ega bo'lgan 81 ta hammom bo'lib, ulardan 14 tasi sovxozlarda joylashgan edi. Viloyatning 7 ta sovxozi va 17 ta kolxozida hammom bo'lmagan. 1960-1980-yillarda Farg'ona vodiysi qishloqlarida yashagan aholi vakillari o'rtasida so'rovnomaga o'tkazilganida, ularning aksariyat qismi hammomlar xizmatidan qoniqish hosil qilmaganligini bildirgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurashidov B. Maishiy xizmat vauning istiqboli. – Toshkent: O'zbekiston, 1980. – B. 5.
2. Bobojonova D. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar (70-80-yillar misolida). – T.: Sharq, 1999. – 105 b.
3. Tajimirzayev E.A. XX asrning 60-80-yillarida Farg'ona vodiysi qishloqlari aholisining kundalik hayoti. Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Andijon, 2020. – 53 b.
4. Usmonov R. Farg'ona vodiysi shaxar atrofi qishloq xo'jaligani yanada yuksaltirish masalalari. –Toshkent, 1971. – B. 17.

5. Хакимов Ахаджон Обазович. “Farg’ona viloyati aholisining kundalik hayoti (1985-1991 yillar) magistrli dissertatsiyasi.